

0'rozali Toshmatov 65 yoshni  
qarshiladi



O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Xalq ijodiyoti fakulteti "Cholg'u ijrochiligi" kafedrası professorı O'rozalı Toshmatov muborak 65 yoshni qarshiladı.



O'rozali Toshmatovning salkam 45 yillik ijodiy faoliyati davomida respublikamiz san'ati va madaniyati sohasini rivojlantirishga qo'shgan hissasi, O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutidagi ko'p yillik pedagogik faoliyatida san'at sohasida iste'dodli kadrlarni tayyorlashdagi mehnatlari yuksak qadrlanib, Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning tabrigi yuborildi hamda Madaniyat vazirligi tomonidan "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni bilan mukofotlandi.



Ushbu ko'krak nishonini Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari Jamol Nosirov O'rozali Toshmatovga tantanali ravishda topshirdi.



– “Siz salkam 45 yillik takrorlanmas ijodiy faoliyatingiz davomida respublika san’at va madaniyat sohasini rivojlantirishga o‘z hissangizni qo‘shib kelmoqdasiz. Ana shu davr ichida Madaniyat vazirligi markaziy apparati va respublika tizim tashkilotlarida faoliyat olib borib, ko‘plab ijodiy ishlarni mohirona boshqarib, ayniqsa nomoddiy madaniy meros muhofazasiga katta e‘tibor qaratib kelmoqdasiz ... Sizing madaniyatimiz va san’atimizni rivojlantirish yo‘lida olib borayotgan serqirra ijodiy ishlaringiz barchamiz uchun ibrat namunasi bo‘lib xizmat qiladi,- deyiladi O‘zbekiston respublikasi Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning O‘rozali Toshmatovga 65 yoshini nishonlashi munosabati bilan yo‘llagan tabrigida.





0'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rektori Ibrohim Yo'ldoshev O'rozali Toshmatovning institutda olib borayotgan faoliyati, mamlakatimiz san'at sohasi taraqqiyotiga qo'shgan xizmatlarini yuqori baholadi.



Ibrohim Yo'ldoshev mehribon ustoz, talabchan pedagogga bundan keyingi faoliyatida muvoffaqiyatlar tiladi va institut jamoasi nomidan qimmatbaho sovg'ani topshirdi.

Tadbirda izlanuvchan murabbiy sha'niga iliq so'zlar aytiladi.



O'rozali Toshmatovning talabalarga bilim berishdagi o'ziga xos jihatlari yana bir bora e'tirof etildi.

**Matbuot kotibi**